

**XALQ TABOBATI YONALISHI TALABALARIGA BIOEKALOGIYA
O‘QITISH METODIKASI.****Salimov Nosirjon Inomjon o‘g‘li***Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**Ta'lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatidagi yangi qarorlar boyicha so‘z yuritilgan

Kalit so‘zlar: – invaziv, akupunktur, tibbiy faoliyat, su-djok terapiya, xijoma

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining “Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy faoliyat ko‘rsatish tartibi va hajmlari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i loyihasi joylashtirildi.

Hujjat bilan Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy faoliyat ko‘rsatish tartibi va hajmlari to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlanishi mumkin.

Nizomga ko‘ra, xalq tabobatining e‘tirof etilgan usullariga quyidagi guruhlar kiradi:

Birinchi guruh – invaziv (teri butunligining buzilishi bilan bog‘liq)

usullarni qo‘llovchi xalq tabobati: akupunktura, su-djok terapiya, xijoma.

Ikkinchi guruh – noinvaziv usullarni qo‘llovchi xalq tabobati:

manual terapiya, akupressura.

Uchinchi guruh – biologik invaziv vositalarni qo‘llovchi xalq tabobati: gomeopatiya, girudoterapiya, apiterapiya.

To‘rtinchi guruh – parhez va o‘simlik vositalarini qo‘llovchi xalq tabobati: fitoterapiya, ochlik bilan davolash. Xalq tabobati usullarini qo‘llash bilan amalga oshiriladigan tibbiy faoliyat shifokorlar va xalq tabobati bo‘yicha mutaxassislar tomonidan Sog‘likni saqlash vazirligi tasdiqlaydigan tibbiy faoliyat amalga oshiriladigan tibbiy ixtisosliklar turlari nomenklaturasi asosida, amalga oshiriladi.

Zamonaviy tibbiyot usullari bilan tibbiy yordamni ko‘rsatishga belgilangan

talablar, xalq tabobati usullarini qo‘llash bilan tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarga ham tatbiq etiladi.

Xalq tabobati usullarini qo‘llash bilan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishda qo‘shimcha (komplementar) usul sifatida maslahatlar berish, diagnostika qilish, davolash va reabilitatsiya shaklida tegishli ambulatoriya va statsionar turdagi tibbiy tashkilotlarda amalga oshiriladi.

Xalq tabobati usullarini qo‘llash bilan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar barcha tibbiyot tashkilotlarida, jumladan davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlarida zamonaviy tibbiyot bilan o‘zaro komplementar hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

Xalq tabobati usullarini qo‘llash orqali tibbiy xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan xalq tabobati bo‘yicha ixtisoslashuvdan o‘tgan yoki tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat

berilgan maxsus xalq tabobati usullari bo'yicha kurslarni tugatgan shifokorlar hamda odam anatomiyasi, fiziologiyasi, farmakologiya, laboratoriya va instrumental diagnostika, shuningdek birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning amaliy ko'nikmalari bo'yicha maxsus o'quv kursini tugatgan shaxslar shug'ullanishlari mumkin.

Xalq tabobati usullarini qo'llash orqali tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun shaxslarning tibbiyot uquv muassasalarida tashkil etilgan maxsus o'quv kurslarini o'tashlari maqsadga muvofiqligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash bo'yicha maxsus komissiyaning xulosasi asosida belgilanadi.

Xalq tabobati usullari bilan davolashning maqsadga muvofiqligini belgilashda xalq tabobati mutaxassisining shifokor bilan o'zaro hamkorligi majburiy shart hisoblanadi. Bunda, maslahat, diagnostika va davolashning zamonaviy yoki xalq tabobati usullaridan birini tanlash huquqi bemorda bo'ladi.

Tibbiyot tashkilotlarida bemorlarni xalq tabobati mutaxassislari tomonidan qabul qilish shifokor ko'rigidan so'ng amalga oshiriladi. Bolalar va homilador ayollarga xalq tabobati usullarini qo'llash orqali tibbiy xizmat ko'rsatish uchun pediater yoki ginekolog shifokorining xulosasi talab etiladi.

O'tkazilgan ko'rik va tekshiruvlardan so'ng shifokor bemorning ambulator kartasiga yoki kasallik tarixiga, shuningdek bemorning qo'lga beriladigan tibbiy konsultatsiv kartasiga tashxis va tavsiyalari to'g'risidagi, shu jumladan xalq tabobati usullarini qo'llash bo'yicha yozuvini kiritadi.

Xalq tabobati usullarini qo'llashga qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lgan taqdirda, shifokor bemor ambulator karta yoki kasallik tarixiga ushbu usullarni qo'llash oqibatida bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarga haqida bemorga ma'lumot beradi, bemor esa ma'lumot olganligini tibbiy hujjatlarga imzo qo'yish bilan tasdiqlaydi. Mazkur yozuv bemorning qo'lga beriladigan tibbiy konsultatsiv kartasida ham qayd etiladi.

Xalq tabobati mutaxassisi bemorning ambulator kartasi yoki kasallik tarixiga xalq tabobati usullari bilan o'tkazilgan muolajalar to'g'risida yozuv kiritadi.

Xalq tabobati usullarini qo'llash bilan tibbiy xizmatlar ko'rsatish tibbiy faoliyatda qo'llash uchun ruxsat etilgan xalq tabobati usullari ro'yxati asosida amalga oshiriladi.

Xalq tabobati usulida xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash tibbiy faoliyatni litsenziyalash uchun belgilangan tartibda (tibbiy ta'lim ma'lumoti mavjudligi talabi bundan mustasno) amalga oshiriladi.

Xalq tabobati usullari bilan tibbiy xizmatlar ko'rsatishda tibbiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar uchun belgilangan talab, bu ularda tibbiyot o'quv yurtlarida maxsus kursni tugatganliklarini tasdiqlovchi sertifikatning mavjudligi hisoblanadi.

Xalq tabobati ixtisosligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, asbob-uskunalar va boshqa texnik vositalar, shu jumladan tibbiy texnikaga eng kam talablar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Bundan tashqari ham juda ko'plab yangiliklar va loyihalar ustida ishlar olib borilmoqda misol uchun

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi.

Hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi 265–I-sonli Qonunining 41-moddasiga (Tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi) quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartish kiritildi:

quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirildi:

«Tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxslar ham O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy xizmat ko‘rsatish faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha maxsus komissiyaning xulosasi asosida xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladilar»;

ikkinchi – oltinchi qismlar tegishincha uchinchi – yettinchi qismlar deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining [Qonuni](#)
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi
3. Veraksa N. E., Galimov O. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv va tadqiqot faoliyati. – M.: Mozaika – sintez. Moskva 2013 yil
4. Emelyanova E.I. Bolalarning tadqiqot faoliyati // Bolalar bog‘chasidagi bola. "Nashriyot uyi" "Maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash" Moskva - 2009. - 3-son.
5. Mixaylova Z. A., Babaeva T. I., Klarina L. M., Serova Z. A. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish - Sankt-Peterburg. : MChJ nashriyoti "Bolalik-Press". - 2012 yil
6. KOUCHING TEXNOLOGIYASI - PEDAGOGIK KOMPETENTSIYANI OSHIRISH SHAKLI SIFATIDA
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=07f0edgAAAAJ&citation_for_view=07f0edgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC